XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 30-oktabr VII-31-107-12-218-K/26 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2027-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi 126-son Farmoniga muvofiq, 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish bilan ta’minlash uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish maqsadida, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2026-yil 30-sentabrdagi xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2026-yil 30-sentabrdagi xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi 98-sonli Farmoniga muvofiq ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi hamda 126-sonli Farmoniga muvofiq ish o‘rinlarini majburiy zaxiralash tartibi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.Raxmonov) hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (S.Allayarov) ning takliflari ma’qullansin va 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun jami 252 ta ish o‘rni zaxiraga qo‘yilsin, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — 126 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun — 7 kishi; ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari uchun — 102 kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun — 9 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun — 3 kishi; odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun — 5 kishi.

4. 2027-yilda zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) bo‘yicha manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 foizini kalendar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechiktirmay tayyor holga keltirsin hamda bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga axborot taqdim etsin;

ish o‘rinlarining qolgan qismini kalendar yilning birinchi choragi davomida zaxiraga qo‘ysin hamda birinchi chorak tugaganidan keyin 10 kun ichida bu haqda axborot taqdim etsin;

ishga joylashtirilgan fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oy hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar taqdim etib borsin.

Ish o‘rinlarini zaxirada saqlash “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 40-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi 64-sonli qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslarni belgilangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ish beruvchilarsubsidiya olish huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40- va 41-moddalariga muvofiq mazkur qaror talablarini bajarmagan ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Jarima qo‘llanilishi ish beruvchini zaxiraga qo‘yilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish majburiyatidan ozod etmaydi.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.Raxmonov)ga:

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini “Bandlik xizmati” axborot tizimi orqali ish beruvchining “YaMMT” IDAKdagi shaxsiy kabinetiga yuborsin;

qaror ijrosi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshirsin;

qaror talablarini bajarmagan yoki fuqarolarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan, 2-ilovasi qaror rasman e’lon qilingan kundan uch oydan keyin kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **SULTONOV XUSHNUDBEK ROMANBERGANOVICH**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 30-oktabrdagi
VII-31-107-12-218-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumanida 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uCHun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	SHtat jadvali bo‘yiCHa xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yil uCHun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramoğidan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**3 202**	**223**	**110**	**7**	**89**	**9**	**3**	**5**
1	TUPROQQAL'A TUMANI 20-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	207324227	92	6	3	0	3	0	0	0
2	"XORAZM VILOYATI TUPROQQAL’A TUMANI 5-SON UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	311604293	39	3	2	0	1	0	0	0
3	TUPROQQAL`A TUMAN BOLALAR-O`SMIRLAR SPORT MAKTABI	204740360	42	3	2	0	1	0	0	0

4	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 3-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	306620854	46	3	2	0	1	0	0	0
5	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI" DAVLAT MUASSASASI	307302504	46	3	1	0	1	1	0	0
6	TUPROQQAL'A TUMANI 1-SON AYRIM FANLAR CHUQURLASHTIRIB O'RGATILADIGAN IXTISOSLASHGAN MAKTAB	203296574	62	4	2	0	2	0	0	0
7	TUPROQQAL'A TUMANI 18-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884537	57	4	2	0	1	1	0	0
8	"XORAZM VILOYATI MADANIYAT BOSHQARMASI TUPROQQAL’A TUMANI 6-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206976263	34	2	1	0	1	0	0	0
9	"TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 19-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206995098	93	7	3	0	4	0	0	0
10	TUPROQQAL'A TUMANI 12-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206881256	44	3	1	0	2	0	0	0

11	TUPROQQAL'A TUMANI 4-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	201730146	51	4	2	0	2	0	0	0
12	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207249311	48	3	1	0	2	0	0	0
13	"TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMIGA QARASHLI 6-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	207098421	48	3	1	0	2	0	0	0
14	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 16-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881295	51	4	2	0	2	0	0	0
15	"TUPROQQAL`A TUMANI XALQ TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 4-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203407742	108	8	3	0	5	0	0	0
16	TUPROQQAL'A TUMANI 6-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206881224	59	4	2	1	1	0	0	0
17	TUPROQQAL'A TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	307302536	129	9	5	0	2	1	1	0

18	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 17-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206884520	62	4	2	0	2	0	0	0
19	"TUYAMO`YIN GIDROUZELIDAN FOYDALANISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	200208984	197	14	10	0	4	0	0	0
20	TUPROQQAL'A TUMANI 7-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206881232	44	3	1	0	2	0	0	0
21	TUPROQQAL`A TUMANI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO`LIMI	200208897	45	3	2	0	1	0	0	0
22	XORAZM VILOYATI TUPROQQAL`A TUMANIDAGI 21-SON AYRIM FANLAR CHUQUR O`RGANILADIGAN DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203383538	96	7	3	0	4	0	0	0
23	"CHAPQIRG'OQ AMUDARYO IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI TUPROQQAL'A TUMANI SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI	307302489	28	2	1	0	1	0	0	0

24	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 9-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203415986	62	4	2	1	1	0	0	0
25	TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 11-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	207098026	87	6	3	0	3	0	0	0
26	"TUPROQQAL`A TUMANI XALQ TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	202257693	131	9	4	0	5	0	0	0
27	TUPROQQAL'A TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI DAVLAT KORXONASI	200209040	698	49	21	5	10	6	2	5
28	TUPROQQAL'A TUMANI DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASI	307302472	26	2	2	0	0	0	0	0
29	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009127	69	5	2	0	3	0	0	0

30	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 16-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	310828592	30	2	1	0	1	0	0	0
31	"TUPROQQAL`A TUMAN 1-SON TEXNIKUMI" Davlat muassasasi	200208952	81	6	3	0	3	0	0	0
32	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	305545156	49	3	1	0	2	0	0	0
33	TUPROQQAL'A TUMANI 10-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203823559	82	6	5	0	1	0	0	0
34	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 15-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881288	32	2	1	0	1	0	0	0
35	"TUPROQQAL`A TUMANI XALQ TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 3-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881200	37	3	1	0	2	0	0	0
36	TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI	203844912	87	6	3	0	3	0	0	0

	TASARRUFIDAGI 8-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI									
37	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 14-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881271	35	2	1	0	1	0	0	0
38	TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 13-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206881264	31	2	1	0	1	0	0	0
39	"TUPROQQAL’A TUMANI KELAJAK MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	207324567	27	2	1	0	1	0	0	0
40	TUPROQQAL'A TUMANI 2-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207098414	28	2	1	0	1	0	0	0
41	TUPROQQAL'A TUMANI 8-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207083164	27	2	1	0	1	0	0	0
42	"TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMIGA QARASHLI 1-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	305545149	21	1	1	0	0	0	0	0
43	TUPROQQAL`A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMIGA	207312764	41	3	1	0	2	0	0	0

	QARASHLI 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI									

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 30-oktabrdagi
VII-31-107-12-218-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Tuproqqal’a tumanida 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	SHtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
					nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramoğidan mahrum bo‘lgan shaxslar
ЖАМИ:			**966**	**29**	**16**	**0**	**13**	**0**
1	"XORAZM SHAKAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	202586539	759	23	16	0	7	0
2	"NEW BEST STYLE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	304828516	207	6	0	0	6	0